CHORVACHILIK TARMOG‘IDA GO‘SHT YETISHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Otabekov Javdod Nurulla o‘g‘li
Guliston davlat universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629241

Anotatsiya. *Mazkur bitiruv malakaviy ishda chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirishni rivojlantirishning tashkiliy asoslari o‘rganilgan. Asosiy e’tibor go‘sht ishlab chiqarishni tashkil etishdagi mavjud muammolar, ishlab chiqarish hajmini oshirish, zamonaviy boshqaruv va marketing yondashuvlarini qo‘llash orqali tarmoq samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan. Ishda ilmiy-tahliliy yondashuv asosida chorvachilik subyektlarining faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Chorvachilik, go‘sht ishlab chiqarish, tashkiliy asoslar, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, marketing, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ishlab chiqarish hajmi, boshqaruv tizimi.*

Аннотация. *В данной выпускной квалификационной работе изучаются организационные основы развития мясного производства в животноводческой отрасли. Основное внимание уделено вопросам существующих проблем в организации мясного производства, увеличения объемов производства, повышения эффективности отрасли за счет использования современных управленческих и маркетинговых подходов. В работе на основе научно-аналитического подхода разрабатываются предложения по совершенствованию деятельности животноводческих субъектов, пути повышения экономической эффективности, внедрения инновационных технологий и координации деятельности хозяйствующих субъектов.*

Ключевые слова: *Животноводство, мясное производство, организационные основы, экономическая эффективность, инновации, маркетинг, хозяйствующие субъекты, объемы производства, система управления.*

Abstract. *This graduation qualification work studies the organizational foundations of development of meat production in the livestock sector. The main attention is paid to the issues of existing problems in the organization of meat production, increasing production volumes, increasing the efficiency of the sector through the use of modern management and marketing approaches. Based on a scientific and analytical approach, the work develops proposals for improving the activities of livestock entities, ways to increase economic efficiency, introducing innovative technologies and coordinating the activities of business entities.*

Keywords: *Livestock, meat production, organizational foundations, economic efficiency, innovation, marketing, business entities, production volumes, management system.*

Kirish. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, ayniqsa chorvachilik tarmog‘ining iqtisodiy salohiyatini oshirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, xususan, sifatli go‘shtga bo‘lgan talabining ortib borayotgani chorvachilikda ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish, uning tashkiliy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, chorvachilik subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tahlil va sintez, taqqoslash, statistik hamda empirik yondashuvlardan foydalanildi. Chorvachilik tarmog‘idagi mavjud holat, go‘sht yetishtirish jarayonlari va tashkiliy tuzilmalarning samaradorligi o‘rganilib, statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiy tahlillar olib borildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, amaldagi siyosat va dasturlarning tarmoq rivojiga ta’siri baholandi. Tadqiqotda Davlat statistika qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi va boshqa rasmiy manbalar axborot bazasi sifatida xizmat qildi.

Adabiyotlar sharhi. Xorijiy tadqiqotchilar chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirishda tizimli yondashuv va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining muhimligini alohida ta’kidlaydilar. Jumladan, M. Porter va J. Davis singari iqtisodchilar chorvachilikni iqtisodiy klasterlar shaklida tashkil etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish mumkinligini qayd etadilar. FAO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) ekspertlari esa chorvachilikda ekologik barqarorlikni ta’minlash, hayvonlarning sog‘lig‘ini saqlash va oziqlantirishni ilmiy asosda tashkil etish orqali go‘sht ishlab chiqarishni barqaror o‘sishini ta’minlash mumkinligini ta’kidlashadi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi davlatlarida olib borilgan amaliy tadqiqotlar chorvachilik infratuzilmasini modernizatsiyalash, genetik seleksiya, chorva hayvonlarini raqamli monitoring qilish kabi texnologiyalarning tarmoqdagi mahsuldorlikka ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonlik olimlar esa so‘nggi yillarda chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirishda milliy sharoitlar va agroiqtisodiy omillarni chuqur tahlil qilishga e’tibor qaratmoqda. Xususan, A. Sattorov, Z. Xasanov, M. Jo‘rayev kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida chorvachilikda kooperatsiya va klaster tizimining joriy qilinishi, naslchilik ishlarini takomillashtirish, mahalliy sharoitga moslashtirilgan yuqori mahsuldor zotlarni yaratishning iqtisodiy afzalliklarini asoslab berishgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan olib borilgan izlanishlar chorvachilikda davlat ko‘magi, subsidiyalar va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Milliy olimlar tarmoqning tashkiliy jihatlarini takomillashtirish orqali nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki chorvadorlar daromadini oshirish, ichki bozorni go‘sht mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlash imkoniyatlarini ham asoslab berishmoqda.

Tahlil va natijalar. Chorvachilik tarmog‘ini samarali tashkil etish va uning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bugungi kunda qishloq xo‘jaligining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, go‘sht yetishtirish hajmining ortib borishi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ichki bozorni barqaror mahsulot bilan ta’minlash hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlarga erishishda tarmoqning tashkiliy asoslarini takomillashtirish alohida o‘rin tutadi. Jumladan, ishlab chiqaruvchilarning klaster asosida integratsiyalashuvi, mayda xo‘jaliklarning kooperatsiya asosida birlashuvi, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va axborot texnologiyalarining joriy etilishi orqali samaradorlikka erishish mumkin.

Shuningdek, naslchilik tizimini modernizatsiyalash, yuqori mahsuldor zotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish, chorva hayvonlarini ilmiy asosda oziqlantirish va kasalliklarning oldini olish chorvachilik mahsuldorligining barqaror o‘sishiga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan raqamli monitoring, avtomatlashtirilgan oziqlantirish va sog‘liqni saqlash tizimlari ishlab chiqarishning sifat va hajmini oshirishga zamin yaratadi. Bular bilan bir qatorda, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy ko‘mak – subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va investitsiya dasturlarining uzluksizligi chorvadorlarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantiradi.

Sohadagi muvaffaqiyat, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini amaliyotga joriy etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, chorvachilik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish uchun tizimli, kompleks va ilmiy asoslangan tashkiliy yondashuvlar zarurdir.

1-jadval

Mavjud muammolar va ularga muallif tomonidan tomonidan taklif etilayotgan yechimlar

Mavjud muammo	Taklif etilayotgan yechim
Tashkiliy jihatdan ko‘pchilik chorvachilik subyektlari hali ham an’anaviy yondashuvlarga tayanmoqda	Fermer va dehqon xo‘jaliklarining tashkil etilishiga zamonaviy menejment, axborot texnologiyalari va raqamli hisob-kitob tizimlarini joriy etish.
Xo‘jaliklar orasida hamkorlik va kooperatsiya sust	Kooperatsion modelni rivojlantirish orqali ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida resurs almashinuvi va umumiy logistika tizimidan foydalanish imkoniyatlarini yaratish
Kadrlar salohiyatining pastligi	Agrar oliy o‘quv yurtlarida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytirish va ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash
Naslchilik bazasining sust rivojlanishi	Nasldor chorva zotlarini import qilish va mahalliylashtirishga oid davlat dasturlarini kengaytirish

Chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirishni rivojlantirish masalasi – nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xavfsizlik va oziq-ovqat barqarorligiga bevosita ta’sir qiluvchi strategik yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur tarmoqning tashkiliy asoslarini takomillashtirish uchun zamonaviy boshqaruv modellari, ishlab chiqarish tizimining diversifikatsiyasi, ilmiy-texnik yutuqlarning joriy qilinishi, infratuzilmaning rivojlanishi va resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy manbalar go‘sht yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

- xo‘jalik yuritish shakllarining moslashuvchanligini ta’minlash;
- ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiyani kuchaytirish;
- innovatsion texnologiyalarni (genetika, oziqlantirish tizimlari, sog‘liqni saqlash texnologiyalari) joriy etish;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash siyosatini uzluksiz olib boorish shular jumlasidandir.

Tahlillardan ko‘rinadiki, chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirishni rivojlantirish samarali tashkiliy yondashuvlarga, zamonaviy modellarni tatbiq etishga va ilmiy asoslangan strategiyalarni qo‘llashga bevosita bog‘liq. Ilm-fan asosidagi yondashuvlar orqali xo‘jaliklar barqaror va samarali faoliyat yuritishi mumkin bo‘ladi. Bu boradagi islohotlar va innovatsion yondashuvlar tarmoqning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.



1-rasm. O'zbekistonda 2010-2023 yillar oralig'ida so'yish uchun yetishtirilgan yirik shoxli qoramollar (tirik vaznda) ming tonnada

2010–2023 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida so‘yish uchun yetishtirilgan yirik shoxli qoramollar hajmi yildan-yilga barqaror sur’atlar bilan ortib borgan. Mazkur davr mobaynida bu ko‘rsatkich tirik vaznda ming tonna hisobida sezilarli o‘sishni namoyon qilgan. 2010-yilda so‘yish uchun yetishtirilgan yirik shoxli qoramollar hajmi 1115,6 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yilda bu ko‘rsatkich 1192 ming tonnaga yetgan. Bu esa bir yil ichida 76,4 ming tonnaga yoki 6,8 foizga o‘sishni anglatadi. Ayni vaqtda, 2012-yil ma’lumotlari mavjud emasligi sababli, tahlil 2013-yil ko‘rsatkichlari bilan davom ettiriladi. 2013-yilda qoramol yetishtirish hajmi 1340,1 ming tonnaga yetib, 2011-yilga nisbatan 148,1 ming tonna yoki 12,4 foizga ortgan.

Keyingi yillarda ham ushbu ko‘rsatkich doimiy ravishda o‘sib borgan. 2014-yilda 1427,4 ming tonnaga, 2015-yilda 1517,1 ming tonnaga, 2016-yilda esa 1616,4 ming tonnaga yetgan. Bu esa har yili o‘rtacha 6-7 foizlik o‘sishni ifodalaydi. 2017-yilda 1682,5 ming tonna, 2018-yilda esa 1829,6 ming tonna qoramol so‘yish uchun yetishtirilgan bo‘lib, bu yillardagi o‘sish agrar sohadagi samarali chorvachilik siyosatini ko‘rsatadi. 2019-yilda bu ko‘rsatkich 1869,6 ming tonnani, 2020-yilda esa 1925,9 ming tonnani tashkil etgan. 2021-yilda esa yirik shoxli qoramol so‘yilishi 1987,4 ming tonnaga yetib, o‘sish sur’atlari davom etgan. 2022-yilda bu ko‘rsatkich 2025,7 ming tonnani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 38,3 ming tonna (1,9%) ga oshgan. Nihoyat, 2023-yilda so‘yish uchun yetishtirilgan yirik shoxli qoramollar hajmi 2077,5 ming tonnaga yetib, umumiy davrda eng yuqori natijani ko‘rsatgan.

Umuman olganda, 2010-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda so‘yish uchun yetishtirilgan yirik shoxli qoramollar hajmi qariyb ikki baravar o‘sib, 1115,6 ming tonnadan 2077,5 ming tonnagacha ko‘tarilgan. Ushbu tendensiya mamlakatda chorvachilik tarmog‘ining

rivojlanayotganligini, aholining go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talabining ortib borayotganligini hamda chorvachilikni modernizatsiyalash borasidagi islohotlarning natijasini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkichlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda chorvachilikning ahamiyatini yanada mustahkamlab beradi.

Taklilar. Chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirish hajmini oshirish va uni samarali tashkil etish maqsadida bir qator tashkiliy takliflarni ilgari surish zarur. Eng avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarini klasterlash orqali yirik va kichik ishlab chiqaruvchilarni yagona tizimga birlashtirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv orqali resurslardan yanada samarali foydalanish va ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, infratuzilmaning zamon talablari asosida yangilanishi, ayniqsa sovitish, transport va so‘yish texnologiyalarining modernizatsiyalashuvi, mahsulot sifatini saqlab qolishga xizmat qiladi. Naslchilik ishlarini takomillashtirish va yuqori mahsuldor zotlarni joriy etish esa chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Quyida "Chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirishni rivojlantirishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish" mavzusiga doir takliflar jadval ko‘rinishida keltirilgan. Har bir taklifga qisqacha mazmuni va kutilayotgan natijalar ilova qilingan.

2-jadval

"Chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirishni rivojlantirishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish" mavzusiga doir takliflar

	Takliflar	Mazmuni	Kutilayotgan natijalar
1	Chorvachilikni klaster asosida rivojlantirish	Yirik va kichik ishlab chiqaruvchilarni integratsiyalash	Resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmining ortishi
2	Chorvachilik infratuzilmasini modernizatsiyalash	Sovitish, transport va so‘yish tizimlarini zamonaviylashtirish	Mahsulot sifati va saqlanish muddatining oshishi
3	Naslchilik ishlarini takomillashtirish	Yuqori mahsuldor nasllarni joriy qilish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish	Go‘sht mahsuldorligining ortishi, iqtisodiy samaradorlikni oshirish
4	Kooperatsiya tizimini kengaytirish	Mayda ishlab chiqaruvchilarni kooperativlarga birlashtirish	Xarajatlarni kamaytirish, bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish
5	Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni joriy etish	Oziqlantirish, kasalliklarni oldini olish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish	Yirik fermalar samaradorligini oshirish, sog‘lom pog‘onali ishlab chiqarish
6	Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish	Subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, investitsiya loyihalari	Chorvadorlarning barqaror ishlashiga yordam, yangilanishlarni jadallashtirish
7	Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish	Sohaga ixtisoslashgan mutaxassislarni tayyorlash	Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish imkoniyatlari

8	Mahalliy va eksport bozorlari uchun marketing tizimini shakllantirish	Raqobatbardosh mahsulot yetkazib berish strategiyasini ishlab chiqish	Ichki va tashqi bozorlarda barqaror savdo hajmining ta’minlanishi

Mayda ishlab chiqaruvchilarni kooperatsiya tizimi orqali birlashtirish ularning xarajatlarini kamaytirib, bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni joriy etish, jumladan oziqlantirish va sog‘liqni saqlash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiya qilish katta ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalarini (subsidiyalar, kreditlar) kuchaytirish esa ishlab chiqaruvchilarga o‘z faoliyatlarini kengaytirish va modernizatsiyalash uchun moliyaviy imkoniyat yaratadi. Bularning barchasi sohada yetarli bilim va malakaga ega bo‘lgan kadrlarning mavjudligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, shu sababli malaka oshirish va yangi mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Oxirgi, ammo muhim omil sifatida marketing strategiyalarini takomillashtirish va mahsulotni mahalliy hamda xalqaro bozorlarga chiqara olish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bu esa sohada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Xulosa. Chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirish hajmini barqaror oshirish va uning raqobatbardoshligini ta’minlash bugungi kunda qishloq xo‘jaligining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yirik shoxli qoramollarni so‘yish uchun yetishtirish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa tarmoqda ma’lum tashkiliy va iqtisodiy yutuqlarning mavjudligini anglatadi. Biroq mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni ilmiy yondashuv asosida tashkil etish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish darajasini oshirish orqali bu sohadagi mavjud imkoniyatlar yanada kengaytirilishi mumkin. Go‘sht yetishtirishni tashkil etish va boshqarishda klasterlash, infratuzilmani modernizatsiyalash, naslchilik ishlarini takomillashtirish, kooperatsiyani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy mexanizmlarni kuchaytirish hamda malakali kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ichki va tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali tayyor mahsulotlar savdosining barqarorligini ta’minlash mumkin. Xulosa qilib aytganda, chorvachilik tarmog‘ining barqaror va samarali rivojlanishi uchun tashkiliy asoslarni har tomonlama takomillashtirish zarur. Bu esa nafaqat go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini kengaytirish hamda qishloq joylarida bandlik va daromadlarni ko‘paytirish kabi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning yechimiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PQ–4479-son “Qishloq xo‘jaligini 2020–2030 yillarda rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – URL: https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Rasmiy veb-sayt: https://stat.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari. – URL: https://agro.uz
4. Портер М. Конкуренция: пер. с англ. – М.: Вильямс, 2005. – 602 с.
5. Дэвис Дж., Голдберг Р. Аграрный маркетинг: теория и практика. – М.: Агропромиздат, 2002. – 328 с.
6. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 1974. – 839 p.

7. FAO. Livestock Development Planning. FAO Animal Production and Health Paper 26. – Rome: FAO, 2020. – URL: https://www.fao.org
8. Rahmatov A.A. Qishloq xo‘jaligida komplekslashtirilgan yondashuvning samarasi // Agrosanoat majmuasi ilmiy-amaliy jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–49.
9. Hasanov Z. Qishloq xo‘jaligida kooperatsiyalashni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 198 b.
10. Jo‘rayev M. Chorvachilikda ishlab chiqarishni tashkil etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish. – Samarqand: SamIQXM, 2021. – 145 b.